

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12113375>

**Umarov Muhiddin Muysinovich**

*O'RQK AKADEMIYASI BOSHLIG'INING O'QUV ISHLARI BO'YICHA O'RINBOSARI*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada harbiy faoliyatning intellektuallashuvi jahondagi ko'plab davlatlar armiyalarining zamonaviy bosqichdagi rivojlanishi hamda ularda kuzatilayotgan yangi tendentsiyalar, ushbu jarayonlar hozirgi kunda harbiy xavfsizlikni taminlashning muhim omili darajasiga ko'tarilganligi xaqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *tendentsiya, intellektual, ekipaj, jang, harbiy xavo kuchlari, harbiy sanoat, ofitser, qurol-aslaha.*

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются об интеллектуализации военной деятельности на современном этапе развития армий многих стран мира, а также о новых тенденциях, наблюдающихся в них.

**Ключевые слова:** направление, интеллектуал, экипаж, боевой, военно-воздушные силы, военная промышленность, офицер, вооружение.

**Abstract:** This article discusses the intellectualization of military activities at the present stage of development of the armies of many countries of the world, as well as new trends observed in them.

**Key words:** direction, intellectual, crew, combat, air force, military industry, officer, weapons.

XX - asrning ikkinchi yarmida yuzaga kelgan noan'anaviy xavf va tahdidlar, mamlakat xavfsizligi hamda yurt barqarorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi xavfsizlik tizimi, jumladan Qurolli Kuchlar oldiga yangi talablar quyib ularning rivojlanishida yangi tendentsiyalar yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Ushbu tendentsiyalar zamonaviy harbiy to'qnashuvning natijasini belgilashga bevosita ta'sir ko'rsatib, ulardan ortga qolish harbiy faoliyat samaradorligining pasayishga olib kelishi mumkin.

Jumladan, harbiy faoliyatning intellektuallashuvi jahondagi ko'plab davlatlar armiyalarining zamonaviy bosqichdagi rivojlanishida kuzatilayotgan yangi tendentsiyalardan biri bo'lib, u hozirgi kunda harbiy xavfsizlikni taminlashning muhim omili darajasiga ko'tarildi va nazariychilar hamda amaliyotchilarning diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etmoqda.

Ta'kidlash lozimki, jamiyatning muhim ijtimoiy-siyosiy instituti bo'lgan Qurolli Kuchlarning intellektuallashuviga ko'plab, xususan, davlatning ilmiy, iqtisodiy, moliyaviy salohiyatining ta'siri kuchli bo'lib, ushbu ko'rsatgichlarning intellektuallashuv jarayonining xorij armiyalarida turlicha kechayotganiga sabab bo'imoqda va bu tabiiydir.

Jumladan, AQSh va Isroilda harbiy faoliyatni intellektuallashuv jarayonining xususiyati sifatida uning intensivligi va ko'p qamrovligini qayd etish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu davlatlar Qurolli Kuchlarida intellekuallashuv jarayonining asosi yo'nalishlari sifatid jangovar faoliyatda inson ishtirokini kamaytirishga xizmat qiladigan harbiy texnika va qurol-aslahani yaratish hamda undan amaliy faoliyatda foydalanishni ko'rsatib o'tishimiz mumkin.

Harbiy fanlar doktori I.Vorobejning ta'kidlashicha bu jangovar faoliyatda inson talofatini kamaytirish imkoniyatini yaratish bilan birga qo'shirlarni zamonaviy qurollar va harbiy texnika bilan ta'minlash orqali ularning kuch va qudratini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Xususan, kosmik razvedka vositalari, kosmik vositalar orqali boshqariladigan qurollar, ko'p funktsiyali to'rtinchchi avlod vertlyotlari robotlashtirilgan harbiy texnikalar, uchuvchisiz samolyotlar, zamonaviy texnologiyalar asosida yaratilgan mukammal himoyalangan zirhli va artilleriya texnikalari, takomillashtirilgan injener, texnik va front orti ta'minotini amalga oshiruvchi texnika vositalar hamda boshqaruvda keng qo'llanilayotgan oltinchi avlod kompyuter vositalari so'zsiz ushbu vazifaning amalga oshishiga xizmat qiladi.

Buning natijasida armiya ekipajsi harbiy texnikalar yordamida inson talofatini kamaytiruvchi ko'p keltirib chiqaruvchi operatsiyalar, jumladan, razvedka, portlovchi vositalarni topish va ularni yo'q qilish, o'q-dori, oziq-ovqat va boshqa ta'minot anjomlarini jang maydonida tashishga mo'ljallangan vositalarga bajarish vaqtida bevosita inson talafotining kamayishiga zamin yaratmoqda.

Ta'kidlash joizki, Amerika Qo'shma Shtatlarida harbiy-siyosiy rahbariyati intellektuallashuv jarayonini tez sur'atlarda va barcha qo'shin turlarida amalga oshirilishiga urg'u berayotgan bo'lsada, asosiy e'tibor harbiy havo kuchlariga qaratilgan.

Jumladan, «2025-yilgacha harbiy havo kuchlarida mavjud uchish apparatlarining 45%ini uchuvchisiz uchish apparatlari tashkil etishi rejalashtirilgan» bo'lib, ushbu jarayonning ko'lami va mamlakat harbiy-siyosiy rahbariyatining unga berayotgan e'tibori to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishga xizmat qilish bilan birga harbiy havo kuchlarida jarayonning jadalroq kuchayotganidan ham dalolat beradi. E'tirof etish lozimki mazkur muammo birgina AQSh Qurolli Kuchlariga xos bo'lmay, balki boshqa armiyalarda ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shuning uchun armiya intellektual saloxiyatni oshirish muammosining samarali yechimi bugungi kunda ko'p jihatdan ushbu ijobiy hal etilishiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Isroi armiyasida intellektuallashuv jarayoni quruqlikdagi bo'linmalarni zamonaviy harbiy texnika va qurol-aslaha, tungi ko'rish moslamalari va boshqa harbiy anjomlar bilan ta'minlash bilan birga asosiy e'tibor harbiy havo kuchlarini takomillashtirishga qaratilgan. Bunda bir tomondan mavjud harbiy aerodromlarni yangi turdag'i «uchishni boshqarish» vositalari bilan ta'minlashga urg'u berilayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan aviaparkni uchuvchisiz samolyot va vertolyotlar bilan jihozlash ustuvor yo'nalish sifatida tanlab olingan.

Uzoq yillardan beri davom etib kelayotgan Isroil-Arab qarama-qarshiligi va undagi talofatlar mazkur davlat rahbariyatining armiya jangovar salohiyatini oshirishda asosiy e'tiborini shaxsiy tarkibning kasbiy tayyorgarligi va jangovar bo'linmalarini ilg'or harbiy texnika va qurol-aslaho bilan ta'minlash lozimligiga qaratdi. Ushbu davlatning bu yo'nalishdagi yutug'i sifatida bugungi kunda Isroilda yaratilgan uchuvchisiz boshqariladigan samolyot va vertolyotlar jahondagi eng ilg'or texnologiyalar asosida yaratilganligi va eng ishonchli ekanligi mutaxassislar tomonidan tan olinganligini hamda xatto harbiy jihatdan rivojlangan va o'z harbiy sanoat majmuasiga ega davlatlarga ham eksport qilinayotganligini ko'rsatib o'tish maqsadga muvofikdir.

Yevropa davlatlar Qurolli Kuchlari intellektuallashuv jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular sirasiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- armiya shaxsiy tarkibining miqdorini kamaytirish hisobiga uning, sifat jumladan intellektual ko'rsatgichlarini oshirish;
- harbiy faoliyatga kosmik soha imkoniyatlarini keng tatbiq qilish;
- faqat klassik va shablon asosidagi jang taktikasini qo'llab jang olib borishga qodir harbiy rahbar o'rniiga tez o'zgaruvchan sharoitlarga mos javob bera oladigan, shablon taktikadan chiqib tafakkuri orqali noan'anaviy usullar yordamida g'alaba qozona oladigan yangi tipdag'i komandirni shakillantirish;
- qo'shirlarni yangi qurol-aslahalar ya'ni, «intellektual» quollar bilan ta'minlashdir.

Xususan, Frantsiyada Qurolli Kuchlar shaxsiy tarkibi miqdori 575 mingdan 440 mingtaga qisqartirildi, qo'shirlar amalyotga kosmik kuzatuv va boshqaru vositalari tatbiq qilinmoda, harbiy xavo kuchlarida uchish apparatlari modernizatsiyasi amalga oshirildi. Buyuk Britaniyada ham 180 ming harbiy xizmatchiga ega, zamonaviy tahdidlarga mos javob bera oladigan, zamonaviy boshqaru tizimiga ega bo'lagn Qurolli Kuchlarni shakllantirish asosiy vazifa sifatida qabul qilingan edi.

Harbiy qurilish sohasida alohida o'ringa ega bo'lgan Bundesverda

XXI asr harbiy xizmatchisini tayyorlash tizimi shakllantirilishi, bunda harbiy xizmatchi «intellektual» quollarni amalda qo'llay olishi lozim bo'lgan ijodiy tafakkurga ega ofitserni tayyorlash ushbu tizimning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Rossiya Federatsiyasi va Xitoy Xalq Respublikasi rahbariyatining Qurolli Kuchlarning intellektual salohiyatini oshirish dasturlarida o'xshash jihatlar mavjud bo'lib, bu quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- kasbiy-psixologik tanlovni amalga oshirish orqali armiya safiga zamonaviy harbiy texnika va qurol-aslahani egallahsga qodir bo'Imagan nomzodlarning shartnoma asosida harbiy xizmatga chaqirishni oldini olish va Qurolli Kuchlarni yuqori intellektual salohiyatga hamda umumiylaytirishga ega shaxsiy tarkib bilan butlash;
- harbiy ta'lif sifatini oshirish orqali tanlab olingen shaxsiy tarkibning maxsus tayyorgarlik darajasini oshirish;
- harbiy-sanoat majmuasi imkoniyatlaridan kengroq foydalanish, shuningdek xorijiy davlatlarda ishlab chiqilgan yangi avlod harbiy texnika va qurol-aslahani sotib olish orqali qo'shirlarni zamonaviy jang vositalari bilan ta'minlash.

Rossiya Federatsiyasi harbiy-siyosiy rahbariyati Qurolli Kuchlar intellektual salohiyatini oshirish maqsadida asosiy e'tiborni murakkab yangi avlod jang vositalarini amalda qo'llashi lozim bo'lgan shartnoma asosidagi harbiy xizmatchilarni tanlab olish va tayyorlash tizimining mahsulorligini oshirishga qaratmoqda. Jumladan, maxsus harbiy ta'lif tizimi faoliyatini tubdan qayta ko'rib chiqish maqsadida oliy harbiy bilim yurtlarining soni 65 dan 10 tagacha qisqartirish va ulardagi ta'lif saviyasini qisqartirish, harbiy bilim yurtlarida 2-3 yillik serjantlar tarkibiga mansub harbiy xizmatchilarning maxsus harbiy tayyorgarlik darajasini oshirishga xzmat qilishi mumkin.

Bu nisbatan yuqori intellektual salohiyatga ega shaxslarni shartnoma asosidagi harbiy xizmatga tanlab olish bilan birgalikda zamonaviy murakkab harbiy texnika va qurol-aslahalardan foydalana oladigan harbiy xizmatchilarni tayyorlash imkonini yaratadi. Shu bilan birga Rossiya federatsiyasida Qurolli Kuchlarni yangi avlod harbiy texnikasi bilan ta'minlash masalasiga ham e'tibor qaratilib, bunda o'z harbiy sanoat majmuasi imkoniyatlari bilan birga rivojlangan G'arb davlatlaridan zamoniy harbiy texnika a qurol-aslahani sotib olish masalasini ko'rib chiqmoqda.

Xitoy Xalq Respublikasida armiya intellektual salohiyatini oshirish maqsadida Qurolli Kuchlar ofitserlar tarkibini nafaqat harbiy bilim yurtlarini tugallagan kadrlar, balki boshqa soha oliygohlarini tugatgan yoki boshqa soha korxonalarida mehnat faoliyati bilan mashg'ul bo'lsa hamda yuqori ilmiy salohiyatga ega mutaxassislar bilan to'ldirish asosiy yo'naliishdan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bunda asosiy e'tibor texnika oliy o'quv yurtlari bitiruvchilariga qaratilgan bo'lib, ushbu Qurolli Kuchlar rahbariyatining fikricha zamonaviy harbiy texnika va qurol-aslahani o'zlashtirishga hamda ularning imkoniyatlaridan to'liq foydalanishga imkon beradi.

**Xulosa qilib aytganda** Qurolli Kuchlarning intellektuallashuvi hozirgi kunda jahonning ko'plab davlatlarida kechayotgan jarayon bo'lib, u armiyaga zamonaviy tahdidlarga munosib javob berishga imkon yaratadi.

Shu bilan birga jarayonning kechish ko'lami, bosqichi, asosiy yo'naliishlari davlatlar armiyalarida farqlanmoqda.

Shuni takidlash lozimki davlatlarning iqtisodiy, moliyaviy intellektul salohiyatlarining turliligi bilan birga mamlakatlar rahbariyati tomonidan asosiy e'tiborni qaysi yo'naliishga qaratishga qaror qilinganligiga ham bevosita bog'liq bo'lib qolmoqda.

#### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Терёхин А. По пальцам пересчитать: Минобороны реформирует военное образование. <http://www.oreanda.ru> 2010.
2. Зелин А. Без пилотов и в стратосфере. <http://mx10.students.ru> 2009
3. Володин А. О модернизации китайской армии // Журнал Звезда. 2007. <http://www.zvezda.ru/>.

4. Богуславский А. Военный потенциал Государства Израиль (состояние и перспективы развития). (электронный сайт) Институт ближнего востока. 2004. <http://www.iimes.ru>.

5. Витковский А. Реформа вооруженных сил: зарубежный опыт // Аналитический вестник Совета Федерации ФС РФ. – М.: 2008, 55 с.